

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-noyabr kuni Saudiyaning yetakchi "ACWA Power" kompaniyasi bilan Toshkent viloyatida "yashil vodorod"ni "pilot" tarzda ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishni boshlash marosimida ishtirok etdi

// 27.11.2023

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/yashil-vodorodni-ishlab-chiqarishni-tashkil-etish>




"O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi bilan hamkorlikda Chirchiq shahrida "Yashil vodorodni ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur investitsion loyiha qiymati 88,0 million AQSH dollarini tashkil qiladi. Mazkur loyiha doirasida birinchi bosqichda 2025-yilda respublikamizda 3 ming tonna yashil vodorod ishlab chiqariladi va quvvati 52 MVt shamol turbinasi ishga tushiriladi.



Loyihani amalga oshirishda Xitoyning dunyoda yetakchi kompaniyalarining ilg'or texnologiyalarini hamda tajribalarini qo'llash, shu bilan birga, muqobil elektr energiya resurslaridan samarali foydalanish natijasida, dunyoda birinchilardan bo'lib yashil vodoroddan mineral o'g'itlarni ishlab chiqarishga va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni dunyo bozorlariga yo'naltirishga erishiladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozim, bugungi kunda Yevropa davlatlarida yashil mineral o'g'itlarga bo'lgan talab juda yuqori bo'lib, ularni 15-20 % qimmatroq sotish mumkin. Bu kabi zamon talablariga mos keladigan mahsulotni ishlab chiqarish O'zbekiston kimyo sanoati eksport geografiyasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.





Yana bir e'tiborli jihati shundaki, mazkur loyiha mamlakatimizda "yashil energetika"ni rivojlantirish va iqtisodiyotga energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilishda muhim qadamlardan biridir. Loyihani amalga oshirishdan quyidagi maqsadlar ko'zlangan:

- Mamlakatimizga kimyo sohasidagi eng oxirgi innovatsion va energo-tejamkor texnologiyalarni olib kirish va shu orqali kimyo sanoati sohasini dekarbonizatsiya qilish hamda yashil texnologiyalarga o'tish;
- O'g'it ishlab chiqarishda tabiiy gazdan foydalanishni qisqartirish va har yili qariyb 33 million metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish;
- Ushbu texnologiyalarni amalda sinab ko'rgan va ularni ishlata olish ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassislar bazasi yaratilishiga erishish;

Ushbu loyiha ekologik jihatdan juda samarali hisoblanadi. Yashil vodorod ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga zararli tashlanmalar chiqarilmaydi. Bu esa sanoatning tabiatga salbiy ta'sirni kamaytiradi. Shuningdek, u neft yoki tabiiy gaz kabi qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishni kamaytiradi va iqtisod qilish imkonini beradi. Qolaversa, yashil vodorod yordamida yashil mineral o'g'itlar ishlab chiqarish ham tabiiy resurslarning kamayishini oldini olish va qishloq xo'jaligining atrof-muhitga salbiy ta'sirini qisqartirishga xizmat qiladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati